Korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun mustaqil tashkilotni tanlash

// 13.01.2021
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/tender/corp-check-2020

2020 yil yakuni, shuningdek 2021 yil birinchi chorak, olti oy, to'qqiz oy va yil yakuni natijalari bo'yicha jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun mustaqil tashkilotni tanlash bo'yicha tanlov e'lon qiladi.

Tanlovda ishtirok etish uchun 2021 yil 1 fevral kunigacha O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Navoiy ko'chasi 38-uyda joylashgan "O'zkimyosanoat" AJga quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza yuborish kerak:

- davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma va amaldagi litsenziyaning nusxalari;
- ish tajribasi va yirik mijozlar (ushbu bo'lim 5-6 ta korxonani eng yirik mijozlar ro'yxatini o'z ichiga olishi kerak);
- qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha mutaxassisning malaka sertifikatlari nusxalari;
- ko'rsatilgan xizmatlarning narxi.

Tanlovda ishtirok etish uchun takliflarni ilova xati bilan muhrlangan xatjildlarda yuborish so'raladi.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun mustaqil tashkilotni tanlash AJ Kuzatuv kengashining qarori bilan tanlov asosida amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan muddatlardan keyin kiritilgan takliflar haqiqiy emas deb hisoblanadi va ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

Murojaat uchun telefon raqamlari: (+998 78) 140-74-97, 140-74-51, 140-74-67.